



HOMILADORLAR GESTATSION QANDLI DIABET KECHISHINI O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Ahmedova Maftunaxon hasanboy qizi

I kurs endokrinologiya yo 'nalishi magistri

Karimova Muqima

t.f.n.

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14809632>

Annotatsiya: homiladorlik qandli diabeti yoki gestatsion qandli diabet to'liq shakilda o 'rganilmagan bo 'lsada bugungi kunda reproduktiv yoshdagi ayollar uchun ushbu shakildagi qandli diabet to 'g'risida tushunchalar berish lozim. Unga ko 'ra gestatsion qandli diabetni keltirib chiqaruvchi sabablar, undan keyingi ona va bola organizmda yuzaga chiqaruvchi klinik shakillar to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirishlar berish kerak. Reproaktiv yoshdagi ayollarning 0.2-0.5% da qandli diabet kasalligi uchraydi. Bu ko 'rsatkichdan 12%da gestatsion qandli diabet kuzatiladi. Ushbu sahifada ayollarga gestatsion qandli diabetni yuzaga keltiruvchi sabablar to 'g'risida fikirlar yuritiladi.

Ilmiy ish maqsadi: Farg'ona viloyati yashab istiqomat qiluvchi homiladorlik dispenser nazoratiga olingan ayollarda gestatsion qandli diabetni o 'z vaqtida aniqlash va asoratlarini oldini olishga qaratilgan.

Tadqiqot obyektlari va tekshiruv usullari: Farg'ona viloyati Farg'ona shaxar oilaviy poliklinikalarida nazoratga olingan 30 nafar homiladorlik qandli diabeti va prediabetik holatlar aniqlangan ayollar.

Bu ayollarda umumiy bioximik taxlil qondagi glukoza miqdori, glikrlangan gemogloblin, glukozaga tolerantlik testi, lipid spektori va homiladorlik anamnezi bo 'yicha tekshirish usullari o 'tkaziladi. Bunday tekshirish usullariga ko 'ra ayollarda qandli diabet doimiyligi yoki gestatsion shakilda yuzaga kelganligi farqlanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: tadqiqot natijalariga ko 'ra Farg'ona viloyati Farg'ona shaxar oilaviy poliklinikalarida nazoratga olingan homilador ayollarning 30 nafarida gestatsion qandli diabet aniqlandi va tekshirildi.

Unga ko 'ra ushbu ayollarning dastlab homiladorlik anamnezi yig'ildi. Anamnezga ko 'ra ayollarning 12 nafarida ya'ni 40%da semizlik III darajasi aniqlandi. 9nafar ayollar ya'ni 30%da 4 tadan ortiq homiladorlik mavjudligi aniqlandi. 9nafar yana 30% holatda egizak farzandlar va yuqori tana massasidagi farzandlar dunyoga keltirilganligi aniqlandi. Laborator tekshiruvga ko 'ra esa ayollarda qondagi glukoza miqdori 6.2 mmoldan 9 mmolfacha





aniqlandi. Ularda 24-28 haftalik homila davrida qayta glukoza taxlili va glikrlangan gemoglabin tekshiruvi o'tkazishga ko'rsatma bo'ldi. Poliklinika sharoitida ayollarda glukozaga tolerantlik testi ham o'tkazildi. Bunga ko'ra ayollarda qondagi qand miqdori 30 nafar ayolga nisbatan 25tasida ko'tarildi.



Xulosa: tekshiruv usullari va homiladorlik anamneziga ko'ra ayollarda reproduktiv salomatlikka to'liq e'tibor bermagan va qandli diabet kasalligi bo'yicha to'g'ri va to'liq tushunchaga ega bo'lmagan ayollar o'rtasida ushbu kasallikni kelib chiqish ehtimolligi yuqori foizlarga to'g'ri keldi. Shunday ekan butun aholi o'rtasida va ayniqsa ayollar o'rtasida ushbu kasallik bo'yicha tushunchalar berish ma'lumotlarini oshirish va eng avvalo sog'lom turmush tarziga rioya ettirish bugungi kunning dolzarb mavzusiligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Williams Textbook of Endocrinology.
2. Вашингтонский справочник Эндокринология-2024.
3. Endokrinologiya A.S. Ametov.
4. Болезни органов эндокринной системы- Дедов 2000.
5. Endokrinologiya –Shagzatova adabiyoti.

